



OT VA SIFAT SO'Z TURKUMLARI O'RTASIDAGI TRANSPOZITSIYA

HODISASINING KUZATILISHI

(ABDULLO ORIPOV SHE'RLARI MISOLIDA)

Toshtemirova Sevinchbonu Jamshit qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E – mail: sevinchbonutoshtemirova@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada transpozitaya, otlashish, sifatlashish hodisasi haqida ma'lumot berildi va bir-biridan farqi tushunirib o'tildi. Abdullo Oriporov ijodida yuqoridagi hodisalar kuzatilishiga misollar yordamida tushuntirildi.

Kalit so'zlar: ot, sifat, so'z turkumi ko'chishi, transpozisiya, otlashish, substantizasiya, sifatlashish.

Annotation: In this article, information was given about the phenomenon of transference, quality, and the difference between them was explained. The observation of the above phenomena in the works of Abdullah Oriporov was explained with the help of examples.

Key words: noun, adjective, lexical movement, transposition, assimilation, substantiation, characterization.

So'z turkumining ko'chishi – transpozisiya deganda, ma'lum bir turkumga mansub so'zning o'ziga xos bo'lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so'z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo'lishi tushuniladi. Turkiy tillarda so'z turkumi bir-biridan qat'iy chegaralanmaydi, ular uzviy aloqada, bir butun sistemanı tashkil etadi. Bu sistema qismlari dialektik mantiqdagi «oraliq uchinchi» qonuniyatidan kelib chiqqan holda gibrid so'z sifatida baholanadigan, har ikki siraga xos semantik-grammatik belgini o'zida saqlovchi, bir turkumdan ikkinchi turkumga ko'chish bosqichida turuvchi so'zlar bilan uzviy bog'lanadi.

Mustaqil so'zlar orasidagi o'zaro munosabat va ularning bir-biriga ko'chishi leksema sememasidagi taraqqiyot natijasida yuzaga kelib, ko'chishning nutqiy va lisoniy lashgan ko'rinishi farqlanadi. Nutqiy ko'chishda nutqiy ko'chma ma'no ifodalananadi. Masalan, Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr qil gapida son turkumiga mansub (bir) so'zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o'tkinchi, nutqiy hodisa. Lisoniy ko'chishda so'z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o'tib ketadi, transpozisiya hodisasi yuz beradi. Transpozisiya deyarli barcha mustaqil so'z, hatto mustaqil va yordamchi so'zlar orasida ham kuzatiladi:



[yigit], [qiz], [o'g'il], [qari], [er], [xotin], [ko'r], [issiq-sovuq] (issiq-sovug‘idan xabar olmoq) sifatlari otga issiq-sovug‘idan xabar olmoq issiq-sovug‘idan xabar olmoq) [kelajak], [bo'lajak] sifatdoshlari, [tilla], [kumush], [taxta] otlari sifatga (tilla uzuk, asal bola) [R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusovva, M.Abduzalova Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 2009-yil, 173-174-betlar].

Ot va uning UGMsi. Kim, nima, qayer so‘roqlariga javob bo‘lib, mavjudot, narsa, joy, voqeа, jarayonni atovchi leksik birlik – ot. «Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash» - ot turkumining UGMsi. Bunda predmet tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik mohiyatga ega. Mantiqan jonsiz va bevosita sezgi a’zociga ta’sir etuvchi narsa predmet deyiladi. Grammatikada esa u keng ma’noda tushuniladi, «mavjudlik» mohiyatiga ega deb qaraladi. [R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusovva, M.Abduzalova Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 2009-yil, 209-bet].

Sifat va uning UGMsi. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi so‘z sifat deyiladi: qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq. Boshqa so‘z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg‘un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, Gul – qizil deganda turg‘un (statik) belgi, Gul qizardi deganda esa o‘zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo‘lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, qizg‘ish – qizil – qip-qizil. Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo‘q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi. [R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusovva, M.Abduzalova Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 2009-yil, 223-bet].

Sifatlarning otlashuvi — substantizasiya. Sifat turkumidagi so‘zlar o‘rnii bilan (ko‘pincha kontekstda) ot turkumiga o‘tib, otlik funksiyasini bajarib kelishi mumkin. Ya’ni bunda sifat belgini emas, predmetni ifodalaydi. Lekin sifat butunlay ot turkumiga o‘tib ketmaydi. Sifat quyidagi hollarda otlashadi: predmet — aniqlanmish (sifatlanmish) tushib qolganda. Sifatlanmishning tushib qolishi sifatlovchini otga (predmet ma’nosini anglatuvchi so‘zga) ko‘chiradi. Bunday hodisa, ko‘pincha: a) maqol va matallarda uchray-di: k o‘r tutganini qo‘ymas, kar eshitganini; qizili qirda qol-di, sarig‘i soyda; mol olasi tashida, odam olasi ichida; kambag‘alni tuyaning ustida it qopar va b;

b) kishi yoki hayvonlarning tabiiy (yoki sosial) holatlarini (nuqson va kamchiliklarini) bildiruvchi (ko‘pincha, ularga laqab bo‘lib qolgan) sifatlar aniqlanmishsiz, ot tarzida qo‘llanadi: cho‘loq, chinoq, maymoq, pakana, naynov, malla, ko‘r, kal, qishiiq, semiz, boy kabilar. [O‘zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya, 1975, 305-bet].

Boshqa turkumdagи so‘zlarining sifat o‘rnida qo‘llanishi: Sifatlar ot o‘rnida qo‘llangan singari boshqa so‘z turkumidagi so‘zlar ham (ot, sifatdosh, ravishlar) sifat o‘rnida qo‘llanishi mumkin. Ko‘pincha otlar ko‘chgan ma’noda yoki emosional-ekspressiv ma’nolarni ifodalash uchun predmet belgisi vazifasida ishlati-ladi: zahar



(odam), tilla (bola), shakar (qiz), oltin (yigit), kumush (suv) kabi. Ikromjon... yog‘och oyog‘iga belini ko‘tarib suykalayotgan mushukning shikoyatli miyovlashiga loqayd qarab o‘tiribdi (Said Ahmad). Sifatdoshlar belgi ma’nosini ifodalab, sifat vazifasida

qo‘llanadi: kelishgan yigit, oqar suv, kelishmagan qiliq kabi. Ravishlar sifat vazifasida so‘llanishi mumkin: ruscha kitob, oqilona maslahat, tez odam va b[O’zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya, 1975, 305-bet].

Aprel osmoniga tikib ko‘zingni,

Qanday soz! Tunlarni kuzatib qolsang,

Ko‘k sari xayollar eltsa o‘zingni,

Qanday soz, yulduzlar ichra yo‘qolsang.

Yulduzlar ichida yulduzsan o‘zing,

Zavqingni qitiqlar shirin tuyg’ular.

Milt-milt yonayotgan jajji **dil** so‘zing

Yulduzlar chamani ichra sho‘x bo‘ylar... [Abdullo Oripov Yillar armoni: 1987. – 29 bet]

Dil - [f. Jj — yurak; qalb, ko‘ngil] *ayn*. Yurak. Bu so‘z ot so‘z turkumiga mansub bo’lsa yuqoridagi she’rda sifat so‘z turkumi vazifasini bajarmoqda . Qanday so‘z ? Dil so‘zlari. Tarnspozitaya hodisasi kuzatilmoqda.

Ipak iz qoldirib uchar quvnoqlar,

Bir-birin quvlashnb, chaqishar chaqnn.

Osmon go'zallarin **kumush** yotoqlar

Qo‘yniga chorlaydi, subhidam yaqin....

KUMUSH - 1 Mendeleyev davriy sistemasining I - guruhiga mansub kimyoviy element, oq-ko‘kish rangli yaltiroq, asl metall. 2 Kumushdan ishlangan, kumush ishlatilgan. Kumush tanga. Kumush barkash. Mehmonxonasidagi ikki kumush qandil porillab yonib turibdi. K. Yashin, Hamza. Bu so‘z ot so‘z turkumiga mansub bo’lsa yuqoridagi she’rda sifat so‘z turkumi vazifasini bajarmoqda . Tarnspozitaya hodisasi kuzatilmoqda.

Eh, siz tog’lar, naqadar ko‘rkam!

Sizga berar ilk nurin quyosh.

Par bulutlar, **marvarid** qorlar

Yuksak cho‘qqi uzra qo‘ygan bosh. [Abdullo Oripov Yillar armoni: 1987,30-bet]

MARVARID: [f. — dur, inju] Ba’zi mollyuskalar (yumshoq tanlilar)ning chig‘anog‘idan olinadigan oq, sarg‘ish, qizg‘ish, ba’zan qora qimmatbaho donacha; dur. Bu



so'z ot so'z turkumiga mansub bo'lsa yuqoridagi she'rda sifat so'z turkumi vazifasini bajarmoqda . Qanday qorlar ? Marvarid qorlar. Tarnspozitaya hodisasi kuzatilmoqda.

Ipak iz qoldirib uchar **quvnoqlar**,
Bir-birpn quvlashnb, chaqishar chaqnn.
Osmon go'zallarin kumush yotoqlar
Qo'yniga chorlaydi, subhidam yaqin... [Abdullo Oripov Yillar armoni: 1987. – 29 bet]

QUVNOQ: 1 Doim, tabiatan xush kayfiyatli; xushchaqchaq. ..bu oiladagilarning hammasi ham samimiyl, quvnoq va oqko'ngil ekanligiga ishongan sayin, bu o'ng'aysizlik o'rtadan ko'tarilib borardi. Otlashish hodisasi kuzatilmoqda.

Hojar onamizning nidosi sabab

Ka'bada ko'z ochgan obi zam-zam ham.

Bir umr talpin mish onaga qarab,

Ne-ne payg'ambarlar, ko'zlarida nam. [Abdullo Oripov Haj dafati: 1992. – 6 bet]

Hojar - Toshdek mustahkam qiz yoki ko'chib yuruvchi, sayohatchi. Bu nom Ibrohim payg'ambar xotining ismi bo'lgan. Shakllari: Hojarbu, Hojarbushi, Hojaroy, Hojarkon. Sifatlashish xodisasi namoyon bo'lmoqda.

Xulosa: *Ushbu maqolada transpozitaya, otlashish, sifatlashish hodisasi haqida ma'lumot berildi va bir-biridan farqi Abdullo Oripov she'rlari misolida tushunirib o'tildi. Bir so'zning birqancha ma'nolari bor, qaysi ma'noda kelayotganligiga qarab farqlash lozim. Bir so'z turkumida qo'llanvchi so'zlar ham boshqa so'z turkumiga o'tishi mumkin ya'ni tarspozi tsiya xodisasi yuz berganda.*

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusovva, M.Abduzalova Hozirgi o'zbek adabiy tili T.: "Fan va texnologiya", 2009-yil, B 391
2. O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya. Toshkent, 2020. B 609
3. Abdullo Oripov Yillar armoni: She'rlar va dostonlari. T.: "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1987. B 592
4. Abdullo Oripov Haj dafati: 1992. – 6 bet
5. O'zbek tilining izohli lug'ati.